

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI VA MILLIY  
MENTALITETNI IFODALASHDAGI O'RNI**

**Doliyeva Laylo Buriboyevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), SamDCHTI dotsenti.

**Isroilova Ozoda**

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi.

**Tel: +998955740403 isroilovaozoda10042003@gmail.com**

**Beknazarova Mushtariy**

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi.

**Tel: +998949907704 xumoyunq21@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20080452>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatdan o'rganilishi, ularning xalq madaniyati, tarixiy xotirasi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Fransuz, o'zbek va boshqa madaniyatlarda frazeologizmlarning ramziy ma'nosi, obrazlar tizimi, lingvomadaniy lakunalar, kognitiv metaforalar va konseptlar misollar yordamida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarni tarjima qilishdagi madaniy fonning ahamiyati ham yoritiladi. Tadqiqot lingvokulturologiyaning zamonaviy yo'nalishlari, globalizatsiya sharoitidagi o'zgarishlar va milliy o'zlikning til orqali saqlanishi masalalarini ham qamrab oladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, lingvomadaniy yondashuv, kognitiv metafora, konsept, ramziy qatlam, milliy mentalitet, tarjima, fransuz tili.

**Аннотация.** В статье рассматривается изучение фразеологических единиц с лингвокультурной точки зрения, подчеркивается их роль как носителей культурной памяти, национальных ценностей и менталитета народа. На материале французского и узбекского языков анализируются символические значения, культурные сценарии, лакуны, когнитивные метафоры и концепты. Особое внимание уделяется культурному фону фразеологизмов и проблемам их перевода. Освещаются современные направления лингвокультурологии, влияние глобализации и роль фразеологии в сохранении национальной идентичности.

**Ключевые слова:** фразеологические единицы, лингвокультурология, когнитивная метафора, концепт, культурный код, национальный менталитет, перевод, французский язык.

**Abstract.** This article explores the study of phraseological units from a linguocultural perspective, emphasizing their function as carriers of cultural memory, national values, and collective mentality. Using examples from French and Uzbek, the paper examines symbolic meanings, cultural models, linguocultural gaps, cognitive metaphors, and key cultural concepts.

The analysis highlights the importance of cultural background in phraseological meaning and translation. It also discusses modern trends in linguoculturology, the impact of globalization, and the role of phraseology in preserving national identity.

**Keywords:** phraseological units, linguocultural approach, cognitive metaphor, concept, cultural symbolism, national mentality, translation, French language.

Frazeologik birliklarni lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganish zamonaviy tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki tilni o'rganish jarayonida faqat grammatik tizim yoki lug'aviy ma'no yetarli emas. Har bir til o'z egalarining hayot tajribasi, tarixiy xotirasi, urf-odatlar va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq.

Shu sababli frazeologik birliklar madaniy axborotni eng ixcham va obrazli shaklda yetkazuvchi vosita sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Ular tilning nafaqat semantik, balki estetik, psixologik va ijtimoiy qatlamlarini ham aks ettiradi.

Lingvomadaniy yondashuvda frazeologizm shunchaki turg'un birikma sifatida emas, balki ma'lum ma'noda "madaniyat o'lchovi" sifatida talqin qilinadi. Ya'ni ibora biror fikrni ifodalash bilan birga, jamiyat nimani me'yor deb bilishi, nimani qadrlashi yoki nimadan hazar qilishi haqida ham axborot beradi. Masalan, fransuz tilidagi avoir la main verte iborasi tashqi tomondan "bog'dorchilikka uquvli bo'lish"ni bildiradi, lekin shu iboraning ichida fransuz madaniyatidagi tabiat, bog', did, manzara, parvarish kabi tushunchalarning qadrlanishi seziladi: "yashil qo'l" obrazi shunchaki rang emas, "o'simlikka jon kiritadigan" qobiliyat ramzi.

Lingvomadaniy yondashuvning nazariy asoslari shakllanishida V. Teliya qarashlari ko'p tilga olinadi. Teliyaning umumiy g'oyasi shundan iboratki, frazeologizmlar xalq madaniyatining "jonli guvohlari" bo'lib, ular milliy ruhni saqlaydi va avloddan avlodga uzatadi. Til egasi iborani ishlatganda ko'pincha uning tarixiy ildizi yoki ramziy mazmuni haqida o'ylamaydi, ammo ibora baribir shu madaniy qatlamni o'zida olib yuradi. Ana shuning uchun frazeologizmlar lingvomadaniy tahlilda eng qulay material: ular madaniyatni "to'g'ridan-to'g'ri" nomlamaydi, lekin obraz orqali yashirin tarzda ifodalaydi.

Yana bir yo'nalish kognitiv lingvokulturologiya, bu yerdagi yondashuv G. Palmer nomi bilan ko'p bog'lanadi. Uning umumiy g'oyasi shuki, frazeologizmlar ortida muayyan madaniyatga xos bo'lgan "ssenariylar" va "tasavvur modellari" yotadi. Ya'ni ibora tasodifan yaratilmaydi: u xalq ongida barqarorlashgan bir voqelik modeli asosida shakllanadi. Fransuz madaniyatida esa ayrim ijtimoiy tajribalar, tarixiy qatlamlar, shahar hayoti bilan bog'liq obrazlar frazeologiyada tez-tez uchraydi. Bu farqni lingvomadaniy tahlil aniq ko'rsatib beradi. Fransuz tilshunosligida lingvomadaniy qarashlar ko'pincha ijtimoiy tarix, madaniyat tarixi va ramzlar tahlili bilan birga yuradi. Shu o'rinda yuqorida tilga olingan tilshunos M. Pasturoning ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiqdir. U ranglar va ramzlar tarixini o'rganish orqali Yevropa madaniyatida obrazlarning qanday yashaganini ko'rsatadi. Frazeologizmlar ham aynan shu "ramziy qatlam" bilan bog'langanligi uchun, fransuz tadqiqotlarida iboralarni tarixiy davrlar, ritsarlik madaniyati, shahar turmushi yoki diniy tasavvurlar bilan tutashtirib tahlil qilish tez-tez uchraydi. Fikrimcha, fransuz iboralaridagi estetika (taom, moda, san'at, rang)ning ko'pligi ham shu madaniy muhit bilan bog'liq: masalan, cordon bleu kabi birikmalar faqat til hodisasi emas, fransuz ijtimoiy-madaniy tajribasining "tilga ko'chgan" shaklidir. Shu sababli fransuz olimlari frazeologizmlarni xalqning kollektiv xotirasi sifatida talqin qilishga moyil.

*O'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yo'nalish nisbatan yangi bosqichda bo'lsa-da, juda jadal rivojlandi desak also mubolag'a bo'lmaydi. Bu jarayonda N. Mahmudov, A. Nurmonov, Sh. Safarov kabi olimlarning ishlari muhim rol o'ynadi. Mahmudov til va madaniyat dialektikasini o'rganar ekan, iboralarni milliy mentalitetning eng "sof" ko'rinishi sifatida ko'rishga intiladi: ya'ni frazeologizm da xalqning diniy qarashlari, maishiy tajribasi, tarixiy xotirasi, axloqiy*

*me'yorlari juda zich jamlanadi. (Mahmudov.N. Tilning milliy-madaniy manzarasini o'rganish muammolari, Toshkent. 2015. -B 45)*

Bugungi kunda lingvomadaniy yondashuv ko'proq antropotsentrik yo'nalish bilan qo'shib boryapti, ya'ni tilni markazga insonni qo'yib tahlil qilish kuchaymoqda. Bu jarayonda bir nechta dolzarb masalalar oldinga chiqdi. Birinchisi - lingvomadaniy lakunalar: bir tilda bor, lekin ikkinchi tilda tayyor muqobili bo'lmagan iboralar. Masalan, fransuz tilidagi l'esprit de l'escalier "kechikib kelgan aqlli fikr" holatini juda aniq obraz bilan beradi, lekin o'zbek tilida bu mazmun ko'pincha izoh bilan ifodalanadi. Ikkinchisi kognitiv metaforalar: jamiyat tafakkuri qanday metaforik "qoliplar" asosida ishlaydi va bu qoliplar frazeologiyada qanday ko'rinadi?

Uchinchi masala esa frazeologik konseptlar: "baxt", "vatan", "muhabbat", "rang" kabi asosiy tushunchalar turli xalqlarda qaysi iboralar orqali "shakllanadi" va bu shakllanishda qaysi qadriyatlar ustun turadi? Menimcha, aynan shu savollar frazeologiyani "tirik" fan qiladi: biz bir iborani tahlil qilib, aslida butun bir madaniy tasavvur tizimiga kirib boramiz.

Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili xalqning qadriyat tizimini aniqlash imkonini beradi. Fransuz tilida "pain" non so'zi bilan bog'liq iboralar kundalik hayot va iqtisodiy barqarorlikni aks ettiradi. Masalan, gagner son pain iborasi mehnat orqali tirikchilik qilishni bildiradi. Bu o'xshashliklar ikki xalq madaniyatida mehnat qadriyatining muhimligini ko'rsatadi.

Lingvomadaniy yondashuv orqali frazeologik birliklarning ramziy tizimi ham aniqlanadi.

Fransuz tilida ranglar ramziy ma'noga ega. Masalan, être connu comme le loup blanc iborasida oq rang ajralib turish va mashhurlikni bildiradi. Shuningdek, marché noir iborasi noqonuniy faoliyatni anglatadi. Bu misollar rang komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Fransuz tilida ayrim stereotiplar hayvon obrazlari orqali beriladi.

Masalan, têtue comme un âne (eshakka o'xshab qaysar) iborasi qaysarlikni bildiradi.

Lingvomadaniy tahlil tarjima jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha noto'g'ri natija beradi. Chunki ibora ortida madaniy fon mavjud. Masalan, fransuz tilidagi donner sa langue au chat iborasini so'zma-so'z tarjima qilish ma'nosiz bo'lib qoladi.

Lingvomadaniy yondashuvning yana bir dolzarb yo'nalishi - milliy o'zlik masalasidir.

Frazeologik birliklar orqali milliy o'zlik, tarixiy xotira va madaniy meros saqlanadi. Shu sababli global madaniyat ta'siri ostida ham iboralar milliy xususiyatlarni himoya qiluvchi vosita bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarni lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganish tilshunoslikda yangi ilmiy istiqbollarni ochadi. Bu yondashuv tilni inson omili, madaniyat va tarix bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Fransuz tili misolida ko'rish mumkinki, frazeologizmlar milliy qadriyatlar, estetik qarashlar va ijtimoiy stereotiplarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli lingvomadaniy tahlil qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2020. – №4 (77). – B. 129-135.

2. Xakimova S. Rang komponentli frazeologik birliklarning lingvamadaniy xususiyatlari // Innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – №3(12). – B. 21–25.
3. Bally Ch. *Traité de stylistique française*. – Genève: Georg, 1909. – 312 p.
4. Berlin B., Kay P. *Basic Color Terms: Their Universality and Evolution*. – Berkeley: University of California Press, 1969. – 178 p.
5. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through their Key Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 317 p.